FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
10-son

UDK: 159.922.8:2-47

Mamatrayimov Jumanazar Mamatmurod o‘g‘li,
Buxoro xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi

“DESTRUKTIV DINIY G‘OYALAR” TUSHUNCHASINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MAZMUNI VA UNING O‘SMIRLIK DAVRI XUSUSIYATLARI BILAN BOG‘LIQLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada “destruktiv diniy g‘oyalar” tushunchasining ijtimoiy-psixologik mazmuni hamda uning o‘smirlik davriga xos psixologik xususiyatlar bilan bog‘liqligi nazariy jihatdan tahlil qilingan. Destruktiv g‘oyalarning shaxsga ta’sir mexanizmlari, jumladan, ongni manipulyatsiya qilish, ijtimoiy izolyatsiya, axborot va xulq-atvorni nazorat qilish, shaxsiy identifikatsiyaga ta’sir ko‘rsatish masalalari yoritilgan. O‘smirlik davriga xos identifikatsiya inqirozi, ijtimoiy mansublik va tan olinishga bo‘lgan ehtiyoj, hissiy beqarorlik hamda tanqidiy tafakkurning rivojlanish jarayonida ekanligi ushbu davrning turli destruktiv g‘oyaviy ta’sirlarga nisbatan nisbatan zaif bosqich ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, shaxs ongining shakllanishida ijtimoiy muhit, psixologik omillar va kompetensiyalarning ahamiyati ham ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, xorijiy va mahalliy ilmiy manbalarni qiyoslash, tizimlashtirish va umumlashtirish asosida amalga oshirilgan. Olingan xulosalar o‘smirlarni destruktiv diniy g‘oyalardan ijtimoiy-psixologik himoyalashga qaratilgan profilaktik dasturlarni ishlab chiqish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: destruktiv diniy g‘oyalar, o‘smirlik davri, ijtimoiy-psixologik mazmun, identifikatsiya inqirozi, ongni manipulyatsiya qilish, psixologik zaiflik, diniy ekstremizm, ijtimoiy muhit, shaxs ongi.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ПОНЯТИЯ «ДЕСТРУКТИВНЫЕ РЕЛИГИОЗНЫЕ ИДЕИ» И ЕГО СВЯЗЬ С ОСОБЕННОСТЯМИ ПОДРОСТКОВОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. В статье теоретически анализируется социально-психологическое содержание понятия «деструктивные религиозные идеи» и его взаимосвязь с психологическими особенностями подросткового возраста. Рассматриваются основные механизмы воздействия деструктивных идей на личность: манипуляция сознанием, социальная изоляция, контроль информации и поведения, а также воздействие на личностную идентичность. Показано, что характерные для подросткового возраста кризис идентичности, повышенная потребность в социальной принадлежности и признании, эмоциональная неустойчивость и продолжающееся развитие критического

мышления могут повышать восприимчивость к различным формам деструктивного идеологического воздействия. Особое внимание уделено роли социальной среды и психологических факторов в формировании сознания личности. Исследование носит теоретико-аналитический характер и основано на систематизации, сравнении и обобщении отечественных и зарубежных научных источников. Полученные выводы могут быть использованы в разработке профилактических программ социально-психологической защиты подростков от деструктивных религиозных идей.

Ключевые слова: деструктивные религиозные идеи, подростковый возраст, социально-психологическое содержание, кризис идентичности, манипуляция сознанием, психологическая уязвимость, религиозный экстремизм, социальная среда, сознание личности.

THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL CONTENT OF THE CONCEPT OF "DESTRUCTIVE RELIGIOUS IDEAS" AND ITS RELATIONSHIP WITH THE CHARACTERISTICS OF ADOLESCENCE

Abstract. This article theoretically analyzes the socio-psychological content of the concept of "destructive religious ideas" and its relationship with the psychological characteristics of adolescence. The mechanisms through which destructive ideas may influence personality are examined, including manipulation of consciousness, social isolation, control of information and behavior, and influence on personal identity. The study shows that identity crisis, the increased need for social belonging and recognition, emotional instability, and the continuing development of critical thinking characteristic of adolescence may increase susceptibility to various forms of destructive ideological influence. Particular attention is paid to the role of the social environment and psychological factors in the formation of individual consciousness. The study is theoretical and analytical in nature and is based on the systematization, comparison, and generalization of national and international scientific sources. The findings may provide a theoretical basis for developing preventive programs aimed at the socio-psychological protection of adolescents from destructive religious ideas.

Keywords: destructive religious ideas, adolescence, socio-psychological content, identity crisis, manipulation of consciousness, psychological vulnerability, religious extremism, social environment, individual consciousness.

Kirish. Zamonaviy axborot jamiyati sharoitida yoshlarning, xususan, o'smirlarning ongi va dunyoqarashiga turli g'oyaviy ta'sirlarning kuchayishi muhim ijtimoiy-psixologik muammolardan biriga aylanmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiya vositalarining keng tarqalishi turli mazmundagi axborotlarni tezkor qabul qilish imkoniyatini oshirdi. Shu bilan birga, yoshlarning psixologik xususiyatlaridan foydalanishga intiluvchi destruktiv

g‘oyaviy ta’sirlarning tarqalishi uchun ham yangi kommunikativ imkoniyatlar yuzaga keldi.

Shaxs ongining shakllanishi va barqaror rivojlanishida ijtimoiy muhit, tarbiya, muloqot va shaxslararo munosabatlar muhim ahamiyatga ega. Ayrim tadqiqotlarda shaxs ongining shakllanishi jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog‘liq ekani ta’kidlanadi [10]. Shu jihatdan, o‘smirning qaysi axborot manbalariga murojaat qilishi, qanday ijtimoiy guruhlar bilan muloqot qilishi va ulardan qanday psixologik ta’sir olishi uning dunyoqarashi shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Muammoning dolzarbligi shundaki, “destruktiv diniy g‘oyalar” tushunchasi ko‘pincha huquqiy yoki siyosiy nuqtai nazardan talqin qilinadi. Biroq mazkur hodisaning shaxsga, ayniqsa, rivojlanish jarayonidagi o‘smir shaxsiga ta’sir mexanizmlarini ijtimoiy-psixologik jihatdan chuqur tahlil qilish ham muhimdir.

O‘smirlik davrida shaxsning o‘zligini anglash, mustaqil qarashlarini shakllantirish, ijtimoiy mansublikni aniqlash va hayotiy qadriyatlarni belgilash jarayonlari faol kechadi. Shu sababli ushbu davrda tashqi ijtimoiy ta’sirlarning mazmuni va xarakteri alohida ahamiyat kasb etadi.

Maqolaning maqsadi “destruktiv diniy g‘oyalar” tushunchasining ijtimoiy-psixologik mazmunini ochib berish hamda uning o‘smirlik davriga xos psixologik xususiyatlar bilan bog‘liqligini nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: destruktiv diniy g‘oyalar tushunchasini psixologik jihatdan tahlil qilish; ularning shaxsga ta’sir mexanizmlarini ko‘rib chiqish; o‘smirlik davrining psixologik xususiyatlarini aniqlash; mazkur xususiyatlarning destruktiv g‘oyaviy ta’sirga nisbatan sezuvchanlik bilan bog‘liqligini nazariy jihatdan asoslash.

Adabiyotlar tahlili. Destruktiv g‘oyaviy ta’sirning psixologik mexanizmlarini tushuntirishda L. Festingerning kognitiv dissonans nazariyasi muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Mazkur nazariyaga ko‘ra, inson o‘z e’tiqodlari, qarashlari va xatti-harakatlari o‘rtasidagi nomuvofiqlikni kamaytirishga intiladi [1]. Bu mexanizm shaxsning muayyan guruhga qo‘shilgandan keyin o‘z tanlovini oqlashga intilishini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega.

R. Lifton “fikrni qayta qurish” nazariyasida totalitar guruhlarning shaxs ongiga ta’sir qilish mexanizmlarini tahlil qilgan. Muallif muhitni nazorat qilish, axborot oqimini cheklash, guruh manfaatlarini shaxs manfaatlaridan ustun qo‘yish kabi mexanizmlarga e’tibor qaratadi [2].

E. Eriksonning identifikatsiya nazariyasi o‘smirlik davrini shaxsning o‘zligini anglash va “Men” obrazini shakllantirish jarayoni kuchayadigan bosqich sifatida tavsiflaydi [3]. Shu sababli o‘smirlik davrida ijtimoiy guruhga mansublik, tan olinish va aniq hayotiy yo‘nalishga ega bo‘lish ehtiyoji kuchayadi.

S. Hassan tomonidan ishlab chiqilgan BITE modeli esa destruktiv guruhlarning shaxs xulq-atvori, axboroti, tafakkuri va hissiyotlari ustidan nazorat

o‘rnatish mexanizmlarini tizimlashtiradi [4]. Mazkur yondashuv destruktiv ta’sirni individual psixologik jarayonlar bilan bog‘liq holda tahlil qilish imkonini beradi.

F. Moghaddamning “terrorizmga olib boruvchi zinapoya” modeli esa radikal g‘oyalarning shakllanishini bosqichma-bosqich jarayon sifatida ko‘rib chiqadi [5]. Muallif ijtimoiy adolatsizlik hissi, muqobil imkoniyatlarning cheklanganligi va guruhga mansublik kabi omillarning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Mahalliy tadqiqotlarda ekstremizm, diniy mutaassiblik va terrorizmning ijtimoiy-ma’naviy asoslari hamda ularning jamiyatga ta’siri o‘rganilgan [6; 7]. Shuningdek, shaxs ongining shakllanishida ijtimoiy-psixologik omillarning o‘rni ham alohida tadqiqotlarda yoritilgan [10].

Shu bilan birga, U.D. Qodirov va hammualliflarning tadqiqotlarida kasbiy kompetensiyalarning shakllanishiga ta’sir qiluvchi psixologik omillar tahlil qilinib, shaxsning rivojlanishi va uning faoliyat samaradorligida psixologik tayyorgarlikning ahamiyati ko‘rsatilgan [9]. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, o‘smirlarning destruktiv ta’sirlarga qarshi psixologik barqarorligini shakllantirishda ham tegishli bilim, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy-psixologik ko‘nikmalarni rivojlantirish muhim deb hisoblash mumkin.

U.D. Kadyrov va G.U. Kadyrov tomonidan giyohvandlik muammosining ijtimoiy-psixologik jihatlari o‘rganilgan bo‘lib, unda shaxsning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabati va psixologik omillarning salbiy xulq-atvor shakllanishidagi o‘rni yoritilgan [8]. Mazkur ilmiy yondashuv destruktiv diniy g‘oyalar ta’sirini o‘rganishda ham umumiy metodologik ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin, chunki har ikki holatda ham shaxsning ijtimoiy muhit, guruh va psixologik ehtiyojlar bilan o‘zaro munosabati muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega. Tadqiqotning metodologik asosini mavzuga oid xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish va nazariy modellashtirish usullari tashkil etdi.

Tahlil jarayonida destruktiv ta’sir mexanizmlarini tavsiflovchi kognitiv dissonans, fikrni qayta qurish va BITE modeli kabi nazariy yondashuvlar o‘smirlik davri rivojlanish psixologiyasiga oid nazariyalar bilan qiyoslandi. Shuningdek, shaxs ongining shakllanishiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillar ham hisobga olindi.

“*Destruktiv diniy g‘oyalar” tushunchasining ijtimoiy-psixologik mazmuni*

“Destruktiv diniy g‘oyalar” tushunchasini ilmiy tahlil qilishda ularni muayyan din yoki konfessiya bilan aynanlashtirmaslik muhim. Diniy qarashlarning destruktivligi ularning diniy mansubligi bilan emas, balki shaxs va jamiyatga nisbatan qanday munosabatni shakllantirishi hamda qanday ijtimoiy-psixologik xatti-harakatlarni rag‘batlantirishi bilan belgilanadi.

Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan destruktiv diniy g‘oyalar shaxsning mustaqil fikrlashi, erkin qaror qabul qilishi, ijtimoiy aloqalarini saqlashi va boshqa

qarashlarga nisbatan bag‘rikeng munosabatda bo‘lish imkoniyatlarini cheklovchi g‘oyaviy ta’sir shakli sifatida talqin qilinishi mumkin.

Bunday g‘oyalarning muhim belgilariga mutlaq haqiqatga egalik da’vosi, muqobil fikrlarni inkor etish, guruh yoki liderga so‘zsiz bo‘ysunishni talab qilish, tashqi ijtimoiy muhitdan uzoqlashtirish, qo‘rquv va aybdorlik hissidan foydalanish hamda shaxsning mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlarini cheklash kiradi.

Demak, mazkur tushunchaning asosiy mezoni diniy mazmunning o‘zi emas, balki shaxs ustidan psixologik va ijtimoiy nazoratni kuchaytiruvchi munosabatlar tizimidir.

Destruktiv g‘oyalarning shaxsga ta’sir mexanizmlari

Destruktiv g‘oyalarning shaxsga ta’siri, odatda, birdaniga emas, balki bosqichma-bosqich shakllanadi. Dastlab shaxsga e’tibor, qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy qabul qilinganlik hissi berilishi mumkin. Bu jarayon shaxsda guruhga nisbatan ijobiy hissiy bog‘lanishning shakllanishiga olib keladi.

Keyinchalik shaxsning kundalik xulq-atvori, axborot manbalari, muloqot doirasi va qarashlari ustidan nazorat kuchayishi mumkin. BITE modeli nuqtai nazaridan bunday nazorat xulq-atvor, axborot, tafakkur va hissiyot sohalarini qamrab oladi [4].

Axborot nazoratining kuchayishi shaxsni faqat muayyan manbalarga ishonishga undashi, muqobil qarashlarni esa noto‘g‘ri yoki xavfli deb qabul qilishga olib kelishi mumkin. Tafakkur ustidan nazorat esa murakkab ijtimoiy masalalarga faqat “to‘g‘ri” va “noto‘g‘ri” kabi keskin kategoriyalar orqali yondashishni kuchaytiradi.

Kognitiv dissonans mexanizmi ham mazkur jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Shaxs guruhga ko‘proq vaqt, hissiy resurs va ijtimoiy aloqalarini sarflagan sari, o‘z tanlovini qayta ko‘rib chiqish psixologik jihatdan qiyinlashishi mumkin [1].

Shu sababli destruktiv ta’sirning oldini olish faqat taqiqlash bilan cheklanmasligi, balki shaxsning mustaqil fikrlashi, axborotni tanqidiy baholashi va sog‘lom ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilishi zarur.

O‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari

O‘smirlik davri shaxs rivojlanishining muhim bosqichlaridan biridir. Bu davrda o‘zlikni anglash, mustaqillikka intilish, tengdoshlar tomonidan tan olinishi va ijtimoiy mansublik ehtiyoji sezilarli darajada kuchayadi.

E. Erikson nazariyasiga ko‘ra, o‘smirlik davrining muhim psixologik vazifalaridan biri identifikatsiyaning shakllanishidir [3]. O‘smir o‘zining kimligi, jamiyatdagi o‘rni, qadriyatlari va kelajakdagi yo‘nalishini anglashga intiladi.

Bunday sharoitda o‘smirga aniq, tayyor va muqobil fikrlarni inkor etuvchi dunyoqarashni taklif qiluvchi guruhlar psixologik jihatdan jozibador ko‘rinishi mumkin. Chunki ular murakkab savollarga oddiy javoblar berish, aniq guruhiy mansublik va “to‘g‘ri yo‘l” obrazini taklif qilishi mumkin.

O‘smirlik davrida tengdoshlar bilan munosabat ham alohida ahamiyatga ega. Oila va kattalar nazoratidan nisbatan mustaqillikka intilish yangi referent guruh

izlash ehtiyojini kuchaytiradi. Agar o‘smir konstruktiv ijtimoiy muhitdan yetarlicha qo‘llab-quvvatlash olmasa, turli guruhlarning ta’siriga nisbatan sezuvchanligi ortishi mumkin.

Biroq o‘smirlik davrini avtomatik ravishda “zaif” yoki “xavfli” davr sifatida baholash ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas. Mazkur yosh davriga xos mustaqillik, qiziqish, ijtimoiy faollik va qadriyatlarni izlash — shaxs rivojlanishining tabiiy va zarur jarayonlaridir. Muammo ushbu tabiiy ehtiyojlarning destruktiv guruhlar tomonidan manipulyativ maqsadlarda ekspluatatsiya qilinishida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy-psixologik himoya va profilaktika masalalari

O‘smirlarni destruktiv diniy g‘oyalardan himoyalash faqat diniy yoki huquqiy bilim berish bilan chegaralanmasligi kerak. Profilaktik yondashuv kompleks xarakterga ega bo‘lib, o‘smir shaxsining psixologik barqarorligini rivojlantirishni ham qamrab olishi zarur.

Birinchi navbatda, o‘smirlarda tanqidiy fikrlash, axborot manbalarini tahlil qilish va manipulyativ ta’sirlarni aniqlash ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim. Ikkinchidan, sog‘lom ijtimoiy munosabatlar, oilaviy muloqot va tengdoshlar bilan konstruktiv hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash lozim.

Shuningdek, maktab psixologik xizmati doirasida o‘smirlarning ijtimoiy moslashuvi, o‘zini anglash darajasi, kommunikativ ehtiyojlari va psixologik holatini muntazam o‘rganish profilaktik ishlarning samaradorligini oshirishi mumkin.

Shaxsning psixologik kompetensiyalarini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Turli psixologik tadqiqotlarda shaxsning bilim, ko‘nikma va psixologik tayyorgarligi uning murakkab vaziyatlarda mustaqil va samarali harakat qilish imkoniyatlarini kengaytirishi ko‘rsatilgan [9]. Shu nuqtai nazardan, o‘smirlarda mustaqil qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, o‘z hissiyotlarini boshqarish va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish destruktiv ta’sirlarga nisbatan psixologik barqarorlikni kuchaytirishi mumkin.

Muhokama. Nazariy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, destruktiv diniy g‘oyalarning ta’siri faqat diniy mazmun bilan izohlanmaydi. Ushbu jarayonda shaxsning psixologik ehtiyojlari, ijtimoiy muhiti, identifikatsiyasi, axborotdan foydalanish xususiyatlari va guruhiy munosabatlar muhim rol o‘ynaydi.

Shaxs ongining shakllanishi ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq bo‘lgani sababli [10], profilaktika ishlarida faqat destruktiv g‘oyalarni rad etish emas, balki ularga muqobil bo‘lgan sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishga ham e’tibor qaratish lozim.

Shuningdek, turli salbiy ijtimoiy hodisalarning shakllanishida shaxsning psixologik holati va ijtimoiy munosabatlari o‘zaro bog‘liq ekanligi haqidagi tadqiqotlar [8] destruktiv diniy g‘oyalar ta’sirini ham faqat bitta omil bilan tushuntirish mumkin emasligini ko‘rsatadi.

Shu jihatdan, o‘smirlarni himoyalashning samarali modeli uch asosiy yo‘nalishni birlashtirishi mumkin: psixologik barqarorlikni rivojlantirish, tanqidiy

va media savodxonlikni oshirish hamda konstruktiv ijtimoiy muhitni mustahkamlash.

Tadqiqotning cheklovlari. Mazkur maqola nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, unda bevosita o‘smirlar ishtirokida empirik tadqiqot o‘tkazilmagan. Shuning uchun keltirilgan xulosalar nazariy manbalarni tahlil qilish va ularni umumlashtirish asosida shakllantirilgan.

Kelgusidagi tadqiqotlarda o‘smirlarning destruktiv g‘oyalarga nisbatan psixologik barqarorligini belgilovchi omillarni empirik jihatdan o‘rganish, turli yosh guruhlarini qiyoslash, ijtimoiy muhit va oilaviy munosabatlarning ta’sirini aniqlash hamda profilaktik dasturlarning samaradorligini baholash maqsadga muvofiq.

Xulosa. O‘tkazilgan nazariy tahlil asosida “destruktiv diniy g‘oyalar” tushunchasini muayyan diniy e’tiqod bilan emas, balki shaxs ustidan psixologik va ijtimoiy nazoratni kuchaytiruvchi g‘oyaviy ta’sir shakli sifatida tushunish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelindi.

Destruktiv ta’sirning asosiy ijtimoiy-psixologik mexanizmlariga hissiy jalb qilish, axborot va xulq-atvorni nazorat qilish, tafakkurga ta’sir ko‘rsatish, ijtimoiy aloqalarni cheklash va identifikatsiya jarayoniga aralashish kiradi.

O‘smirlik davriga xos identifikatsiya jarayoni, ijtimoiy mansublik va tan olinishga bo‘lgan ehtiyoj, mustaqillikka intilish hamda hissiy beqarorlik ayrim sharoitlarda destruktiv g‘oyaviy ta’sir uchun qulay psixologik sharoit yaratishi mumkin. Biroq ushbu xususiyatlarning o‘zi patologik yoki salbiy emas. Aksincha, ular shaxs rivojlanishining tabiiy bosqichlari hisoblanadi.

Shu sababli profilaktik ishlarning asosiy maqsadi o‘smirni qo‘rqitish yoki uning ijtimoiy faolligini cheklash emas, balki mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, sog‘lom muloqot o‘rnatish, o‘z hissiyotlarini boshqarish va konstruktiv ijtimoiy guruhlarga mansublik ehtiyojini qondirish imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat bo‘lishi kerak.

Maqolada ilgari surilgan nazariy xulosalar o‘smirlarni destruktiv diniy g‘oyalardan ijtimoiy-psixologik himoyalashga qaratilgan profilaktik dasturlarni ishlab chiqishda, maktab psixologik xizmati faoliyatini takomillashtirishda va yoshlarning psixologik barqarorligini rivojlantirishga qaratilgan amaliy dasturlarni yaratishda nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Mazkur xulosalarning amaliy samaradorligini aniqlash uchun kelgusida empirik tadqiqotlar o‘tkazish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Festinger L. A Theory of Cognitive Dissonance. – Stanford: Stanford University Press, 1957. – 291 p.
2. Lifton R. J. Thought Reform and the Psychology of Totalism: A Study of "Brainwashing" in China. – New York: W. W. Norton & Company, 1961. – 510 p.
3. Erikson E. H. Identity: Youth and Crisis. – New York: W. W. Norton & Company, 1968. – 336 p.
4. Hassan S. Combating Cult Mind Control. – Rochester, VT: Park Street Press, 1988. – 256 p.
5. Moghaddam F. M. The staircase to terrorism: a psychological exploration // American Psychologist. – 2005. – Vol. 60, № 2. – P. 161–169.
6. Shermuxamedov K. A., Karimov J. A. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari: o'quv qo'llanma. – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2018. – 176 b.
7. Hayitova H. M. Ekstremizm, uning jamiyat va davlat qurilishiga destruktiv ta'sirlari // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2023. – 3(4). – B. 543–549.
8. Kadyrov U. D., Kadyrov G. U. Drug Addiction as a Social-Psychological Problem // Science and Innovation, International Scientific Journal. – 2024. – Vol. 3, Issue 3. – P. 80–83.
9. Qodirov U. D., Khojiboev I. I., Turakhanov A. E., Nurmamatov A. S. Psychological Factors in the Development of Professional Competences of Trainees Increasing Qualification in the System of Public Education // European Journal of Molecular & Clinical Medicine. – Vol. 7, Issue 3. – P. 3836–3843.
10. Кадыров У. Д., Авазов К. Х. Современные аспекты формирования сознания личности в обеспечении устойчивого развития общества // Интернаука. – Б.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
10-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694